

## TA'LIM JARAYONIDA GENDER TENGLIK MASALALARI

**Majidova Xurriyat Eshmurodovna**  
**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

[mxurriyat@list.uz](mailto:mxurriyat@list.uz)

**Annotatsiya.** Hozirgi kunda yoshlar, ayollar va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari turmush sharoitlari yaxshilash, munosib mehnat va keng qamrovli hamda adolatli iqtisodiy o'sish, ayollar, yoshlar va chekka qishloqlar aholisi yaxshi malaka, barqaror ish o'rinlari va mustahkamlangan turmush sharoitlaridan foydalanishga qaratilgan loyihalar amalga oshirilmoqda. Ushbu maqolada ta'lim jarayonida gender tenglik masalalariga oid mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** axloq, huquqiy-siyosiy tarbiya, gender tenglik, ma'rifatli ayollar, madaniy muloqot.

Jamiyat hayotining qay darajada rivojlanish sari qo'yilayotgan qadamlar, qolaversa, istalgan harakatdan kutiladigan natijalar albatta ko'p jihatdan ijtimoiy munosabatlar bilan bevosita bog'liq. Aynan shu munosabatlar hayotimizning barcha jabhalari – mehnat faoliyati, oila, mahalla, o'qish, muloqot va boshqa turli jarayonlarni boshqarib keladi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning inson xuquqlari, erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan siyosati ana shu ijtimoiy farqlarni yumshatishga, iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotning barcha soxalarida ularga teng imkoniyatlar yaratishga gender tenglik g'oyasini shakllantirishga qaratilgandir. 2020-yil 23-sentabrda e'lon qilingan, «Ta'lim to'grisida»gi qonunda ta'lim soxasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplarida ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi muhim tamoyil sifatida belgilangan. Shundan kelib chiqqan holda yoshlarni gender tenglik, tolerantlik, insonparvarlik ruhida tarbiyalash hozirgi davrning dolzarb pedagogik muammosidir. U davlat ahamiyatiga molik ma'naviy-axloqiy, xuquq siyosiy tarbiya asosidir. Yoshlarni gender tengligi g'oyasi asosida tarbiyalash, uning mazmun-mohiyati, vazifalarini ilmiy-nazariy hamda pedagogik jihatdan o'rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Gender tenglik tarbiya tizimi nihoyatda keng qamrovlidir. Maqsadli disputlar, davra suhbatlari, savol-javob kechalari, tematik ma'ruzalar, seminar-treninglar, nazariy-amaliy konferensiyalar ham ushbu yo'nalish rivojiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

O'tmishda, ayniqsa, XIX asr oxiri – XX asr boshlarigacha bo'lgan davrda jamiyat hayotida erkaklar ustuvor mavqega ega bo'lib, ayollarga tobe, ijtimoiy faolligi past fuqarolar sifatida qaralgan. Hattoki, ma'rifatli ayollarning jamiyatdagi ijtimoiy faolligi ham uncha sezilmas edi. Garchand ularga jinsiy farqlarni hisobga olgan holda alohida-alohida ta'lim berilgan bo'lsa-da, aksariyat ma'rifatli ayollarning bilimdonlik darajasi faqat oila va farzandlar tarbiyasi uchun xizmat qilardi. Bu hol o'sha davrda tabiiy hodisa sifatida e'tirof etilgan. Mazkur vazifalar ham erkaklar, ham ayollar tomonidan e'tirozsiz bajarilgan. XX asrning 30-yillaridan boshlab O'zbekiston jamiyatida feminizm, ya'ni ayollarning mustaqilligi

ortib, faollashuv davri boshlandi. Endi maktablarda o'g'il va qiz bolalarga o'zaro tenglik asosida ta'lim berish jarayoni boshlangan edi. Biroq bunda ularning fiziologik, biologik, jismoniy imkoniyatlari va jamiyatda bajaradigan rollari farqlanmaganligi yaqqol sezilib qoldi. Natijada ayollar qurilishlarda og'ir mehnat bilan band bo'lib, erkaklar peshtaxta orqasida savdo qiladigan va yengil mehnat bilan band bo'ladigan holatlar keng ko'lam kasb etdi. Ayniqsa, bugungi kunga qadar mehnat darslarida o'g'il va qiz bolalarning bir xildagi o'quv faoliyatiga jalb etilayotganligi achinarli holdir. Lekin bunday yondashuvga qaramasdan, jamiyatda ayollar hamda erkaklarning bajaradigan vazifalari har doim farqli bo'lib kelgan va ko'p hollarda o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda bu farq hisobga olinmaganligi tufayli ijtimoiy munosabatlarda nomutanosiblik vujudga kelgan. Ta'lim jarayonida gender o'xshashlik va farqlarni hisobga olish ijtimoiy hayotda jinslararo munosabatlarning o'ziga xoslik va individuallik kasb etishiga yordam beradi. Ular orasida yakdillik, bir-birini tushunish, o'zaro bog'liqlik paydo bo'ladi. Gender farqlar va o'xshashliklarni hisobga olishning asosiy pedagogik imkoniyatlari tolerantlik, har bir jins vakilining o'ziga xosligi va farqini hurmat qilish, o'zaro munosabatlardagi barqarorlikni ta'minlashga yordam berishdan iboratdir.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlari rivojlangan jamiyatdagi o'zgarishlar qiz bolalarning mazkur mikrosotsiumda tutadigan mavqeiga ham muayyan ta'sir ko'rsatadi. Bu esa ta'lim jarayonida qiz bolalarni mustaqil, faol, kuchli, o'qimishli va yetakchi bo'lishga undash lozimligini ko'rsatadi. Ularga ta'lim berish bilan bir qatorda, ularni ijtimoiy hayotga, ona bo'lishga tayyorlash ehtiyojini keltirib chiqaradi.

Ta'lim jarayonida o'g'il va qiz bolalar orasidagi pedagogik aloqani ta'minlash uchun, ularning teng huquqliligini tan olish lozim. Ta'lim jarayonida amalga oshiriladigan gender tamoyilining asosini o'g'il va qiz bolalar orasidagi o'zaro yordam hamda sabr-toqat va har bir jinsning "o'z-gacha" bo'lish huquqini tan olish tashkil etadi. Mustaqillikka erishilganidan keyin o'zbek xalqining milliy qadriyatlari va an'analari qayta tiklana boshlandi. Ayniqsa shu kunlarda, gender tenglik masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu ta'lim jarayonida o'g'il va qiz bolalar o'rtasida ma'naviy qadriyatlarimiz, o'zbek xalqining o'ziga xos urf-odatlarini, faoliyatlarini targ'ib qilish, ularning har birining o'ziga xos mavqeni egallashlari uchun zamin hozirlash lozimligini ko'rsatdi.

Bunday sharoitda xalq ta'limi xodimlari va o'qituvchilarning asosiy e'tiborlari ta'lim jarayonida qizlar va o'g'il bolalar orasida yangi madaniy muloqot muhitini yaratish, o'zaro hurmat, mehnatsevarlik, bir-biriga mehr hissini qaror toptirishga qaratilishi zarur. Bunda o'zbek xalqining tarixiy tajribalaridan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Genderni mohiyatan pedagogik jihatdan anglash uni ta'lim jarayonini rivojlanuvchi didaktik hodisa sifatida idrok etishdan iborat. Gender, ya'ni o'g'il va qiz bolalarning ta'lim jarayoni sub'ektlari sifatidagi ahamiyati, ularning o'zaro teng va farqli o'quv faoliyati bilan bog'liqdir. Gender, ya'ni o'g'il va qiz bolalarning teng va farqli faoliyati pedagogik jihatdan tashkil etilishi va nazorat qilinishi kerak. Bundan ko'zlangan maqsad o'g'il va qiz bolalarda bilim, ko'nikma, malakalar hamda shaxsiy sifatlarini aniqlash va

baholashdan iborat. O'quvchilar orasidagi gender tenglik va farqlarni o'rganishda asosiy e'tibor ularning o'ziga xos individuallik darajasini anglashga qaratiladi. Biz genderni o'g'il va qiz bolalar sifatida emas, balki ta'lim jarayonining o'zaro teng va farqli imkoniyatlarga ega bo'lgan sub'ektlari sifatida talqin qilamiz. Ta'lim jarayonida genderning imkoniyatlariga ko'ra farqlanishi ularning kundalik o'quv jarayonidagi faoliyatlari bilan bog'liqdir. Bunda ta'lim jarayonidagi hamkorlik ishtirokchilari sifatida o'g'il va qiz o'quvchilar hamda o'qituvchilar o'zlarining ko'plab va xilma-xil o'quv-biluv hamda boshqaruv harakatlarini gender farqlar asosida amalga oshiradilar. Ushbu mantiqni o'rganishda davom etar ekanmiz, avvalo, muhim ahamiyatga ega bo'lgan va mutlaqo ishlab chiqilmagan ta'lim jarayonida jinslar orasidagi tenglik va farqlarga asoslangan o'quv mehnatini tashkil etish masalasini ko'rib chiqish zarurati tug'iladi. Gender bu – individlarni erkaklar yoki ayollar sifatida tasniflash uchun ijtimoiy qabul qilingan biologik mezonlardan foydalanishga asoslangan muayyan aniqlikdir.

Pedagogik nuqtai nazardan tasniflashda ta'lim jarayoniga kirib kelgan o'quvchilarning o'g'il yoki qiz bola sifatidagi o'ziga xos jismoniy, ruhiy, potentsial imkoniyatlari va xususiyatlari hisobga olinadi. O'quvchining jins belgisiga ko'ra mansublik kategoriyasiga kiritilishi jinsiga ko'ra mansublik mezonlari asosida amalga oshiriladi. Pedagogik jarayonda bunday bo'linish ijtimoiy-ta'limiy jihatdan belgilangan identifikatsiya ko'rinishlari asosida farqlanadi va qo'llab-quvvatlanadi. SHu ma'noda, o'quvchi jinsiga qarab o'quv topshiriqlarini belgilashda uning imkoniyatlari inobatga olinadi. Biroq o'quvchining jinsga ko'ra imkoniyatlari o'zgaruvchan bo'ladi. Bu shundan dalolat beradiki, o'quvchiga jinsiga ko'ra taqdim etiladigan o'quv topshiriqlari dinamik jihatdan rivojlantirilishi kerak. Biroq uning ta'lim-tarbiyaviy qimmatini muayyan jinsga mansublikni ifodalashi lozim. Masalan, qiz bolalar o'g'il bolalardan ko'ra kuchliroq bo'lgan taqdirda ham nafislik, go'zallikni anglashga ko'proq moyil bo'ladilar. Did va nafosat tarbiyasi esa qiz bolalar uchun muhim ahamiyatga ega. SHu tariqa o'quv faoliyatining gender turlari muayyan kategoriya va jinsiy belgiga ko'ra mansublik asosida tanlanadi.

O'quvchining gender mansubligi uning shaxsiy jihatigina emas, balki bu o'quvchi o'qituvchi va sinfdoshlari bilan hamkorlikda amalga oshirayotgan faoliyat turi hamdir. Genderning o'quv faoliyatini empirik tadqiqot predmeti sifatida o'rganishda ishni dastlab ta'lim jarayoni sub'ektlari genderga yo'naltirilgan shaxs sifatida shakllanishi uchun talab qilinadigan ko'nikma va malakalar tarkib toptiriladigan o'quv jarayoni mazmunini modernizatsiyalash maqsadga muvofiqdir.

Aynan ijtimoiy jihatdan bilimli bo'lib ko'rinishga urinish ularning gender o'xshashlikka bo'lgan dastlabki da'volarini ifodalaydi: “Bolalarning ijtimoiylashuviga doir sinov bosqichida ularning ixtiyorida, odatda, ikki turdagi ijtimoiy o'xshashlik: «bola»ning o'xshashligi yoki jinsiy a'zolarining rivojlanishiga ko'ra “katta o'g'il bola” yoki “katta qiz bola” o'xshashligi mavjud. Bundan tashqari, atrofdagilar ularga “bola” bo'lishning kamsituvchi tabiati haqida yashirincha ma'lumotlar beradilar. Masalan, bola yomon xatti-harakat sodir qilayotganda qo'lga tushsa, ularga ko'pincha “Sen o'zingni boladay tutayapsan”

yoki “O’zingni katta boladek tut”, deya tanbeh berishadi. Natijada, bolalarning xatti-harakatiga nisbatan uyg’ongan bu odatdagi verbal reaksiyalar ularga xulq jihatidan kamsituvchi “bola” o’xshashligi bilan anatomik belgilangan jinsiy o’xshashlik orasidan bittasini tanlash lozimligini ko’rsatadi. Natijada o’g’il bolalar «samaradorlik»ning gender idealini o’zlashtiradi, ya’ni jismoniy, ijtimoiy, pedagogik muhitga jismoniy kuch yoki tegishli malakalarni namoyish etish orqali ta’sir ko’rsatishga tayyor bo’ladi. Aksincha, qiz bolalar tashqi qiyofa, kiyim-kechaklarni qadrlay boshlaydi, ya’ni ular o’zlarini hashamdor qilib ko’rsatishga intiladi. Har ikki toifaga mansub o’quvchilar shuni tushunadiki, jinsga ko’ra toifalanishni tan olish va bunday vaziyatdan foydalanish ularning o’zlariga bog’liq emas, balki majburiydir. O’g’il bola yoki qiz bola bo’lish shu tariqa nafaqat “bolaga” nisbatan bilimlir oq bo’lishni, ayni paytda ayol yoki erkak jinsiga mansub mavjudot sifatida bilimlir oq bo’lish, ya’ni erkaklarga xos yoki ayollarga xos xatti-harakat, o’g’il va qiz bolalarga xos o’quv faoliyatini tanlashdan ham iborat.

O’quvchilarning jinsiga ko’ra gender toifasining nisbati institutsional va tahlil jarayoni subhektlariaro hamjihatlik darajasini ifodalaydi. Bunday bog’lanish o’quvchining jinsiga ko’ra mansublikka asoslangan ijtimoiy-pedagogik munosabatlarni bir tizimga soladi. Pedagogik nazoratning shakllangan mexanizmi bilan bir qatorda pedagogik tuzilmani o’zaro hamkorlik asosida qo’llab – quvvatlaydi. Qiz va o’g’il o’quvchilar o’rtasidagi institutsional kuchlarni baholagan holda o’zaro pedagogik hamkorlik darajasida sodir bo’layotgan hamda tabiiy va aniq farqlarning mohiyatini ifodalaydigan holatlarni to’g’ri anglash lozim. Pedagogik o’zgarishlar o’quvchining jinsiga ko’ra mansublik kategoriyasi darajasida ham, genderning interaktsion darajasida ham amalga oshirilishi kerak. Biroq institutsional va pedagogik hamkorlik sohasining analitik farqlanishi ijtimoiy-pedagogik o’zgarishlarga tahsir ko’rsatishi xususida fikr yuritilganda o’quv materialini tanlashga ehtibor qaratish muhim ahamiyatga ega. Gender jinsiga ko’ra mansublik bilan belgilangan holda o’quv materiallari, tahlilimiy topshiriqlar tanlanishi va yaxlit tizimga solinishi maqsadga muvofiqdir. Pedagogik vaziyatda gender mansublikka qay darajada rioya qilinishini tushunish pedagogik jarayonda hamkorlik mexanizmlarini qo’llash hamda uning mavjudligini tahminlaydigan nazorat mexanizmlarini belgilash imkonini beradi.

#### **Foyalanilgan manbaalar**

1. Abdusattorova O.A. Oila muhitida o’smirlarda shakllanadigan jinsiy identifikatsiyaning gender xususiyatlari: Psixologiya fanlari nomzodi. disser. aftoref. – Toshkent; O’zMU, 2007. – 22 b.
2. Клима А. Гендерные вопросы и стереотипы в учебниках общеобразовательных школ//VI Xalqaro konferentsiya materiallari. – Toshkent, 2003. -15-17 oktyabr’.
3. Практикум по гендерной психологии. /Под ред. И.С. Клециной. –Спб.: Питер, 2003. – 480с. (Практикум по психологии)
- 6.Ибайдуллаева, У., & Абдурасулов, Р. (2021). Низолашув даражасини ўсмирларнинг характер хусусиятларига таъсири. *Общество и инновации*, 2(10/S), 499-505.

- 7.Ибайдуллаева, У. Р. Ўсмирлар ўртасидаги низолар ва уларни бартараф этиш. *Профессор-ўқитувчилар ва талабаларнинг I илмий-амалий конференцияси, МИРЗО УЛУГ 'БЕК НОМИДАГИ ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ ЖИЗЗАХ ФИЛИАЛИ//2020/5//37-39б.*
- 8.Ibaydullayeva, U. (2022). DIQQATNI JAMLASH QOBILIYATINING PASAYISHI VA BUZILGAN KONSENTRATSIYANING OLDINI OLISHDA PSIXOLOGIK YORDAM BERISH USULLARI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(6)*
- 9.Ibaydullayeva, U., & Mamatqulova, Y. (2022). ЎСМИРЛАР ЎРТАСИДАГИ ЗИДДИЯТЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИЩДА ОИЛАНИНГ ЎРНИ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(6).*
- 10.Ibaydullayeva, U. (2021). СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ТРУДНО ВОСПИТУЕМЫХ ДЕТЕЙ В СЕМЬЕ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, (2).*
- 11,Абдурасулов, Р. А., & Ибайдуллаева, У. Р. The influence of motivation on the formation of personality traits. *Journal of Physical Education and Sport (JPES).*